

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI**

**PSIXOLOGIYA TA‘LIM YO‘NALISHI II KURS TALABASI
TOYIROV MUHRIDDIN G‘AFURZODA**

REFERAT

**MAVZU: SHAXS VA UNING SOTSIAL PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

Buxoro – 2016

MAVZU: SHAXS VA UNING SOTSIAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

REJA:

KIRISH

I BOB. PSIXOLOGIYADA SHAXS TUSHUNCHASINI O'RGANISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

1.1. Sharq mutafakkirlarining shaxs to'g'risidagi qarashlari

1.2. G'arb mamlakatlari olimlarining shaxs haqidagi talqinlari

II BOB. SHAXSNING JAMIYATDAGI O'RNI VA IJTIMOIYLASHUVI

2.1. Shaxsning jamiyatdagi o'rni va mohiyati

2.2. Shaxsning ijtimoiy xulq-atvor motivlari va ijtimoiylashuvi

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar muvaffaqiyati jamiyatning qudrati, kelajagi, barqarorligi moddiy va ma'naviy mahsulotlar yaratuvchi shaxs aql-idroki va salohiyatiga bog'liq bo'lib kelmoqda. Shaxs mustaqil fikrga, nuqtai-nazarga ega bo'lishi bilan o'z fikrini himoya qilish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishi, ijtimoiy muhitning talablariga javob bera olishi zaruriy holatga aylanmoqda. Bizning demokratik jamiyat qurish yo'lida jamiyat uchun kerakli, yurt ravnaqi uchun foydali shaxslarning madaniyat, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni qadrlab, ularni asrab-avaylab vatanparvar bo'lishi hozirda jamiyat oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Hozirgi zamon psixologiyasi fani shaxs faoliyatini ijtimoiy sohadan ajralgan holda o'rganish murakkab ekanligini alohida e'tirof etmoqda. Shaxs Psixologiyasi haqida ma'lumotlar berilishini ta'kidlagan holda bularda asosan shaxs rivojlanishining ijtimoiy jihatdan mavjud qonuniyatlarini o'rganishga ko'proq e'tibor berish talab etiladi.

Shaxs ijtimoiy o'zaro ta'sir va munosabatlarning birlamchi omili bo'lib hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda shaxs to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun, avvalo, «inson», «indivud», «shaxs» tushunchalarini bir-biridan farqlab olish kerak. «Inson» tushunchasi, umumiy, hammaga xos bo'lgan sifat va qobiliyatini izohlash uchun qo'llaniladi. Bu tushuncha dunyoda mavjud bo'lgan, tarixan o'ziga xos shunday rivojlanayotgan birlikki, insoniyatni anglatib, u boshqa hamma moddiy tizimlardan farqli o'laroq o'ziga xos ijtimoiy faoliyat usullari bilan farq qiladi.

Mustaqil davlatimizning siyosati inson manfaatini himoya qilish, uning uchun munosib turmush tarzini yaratish ekan, bu ishlarni amalga oshirish uchun shaxsning jamiyatdagi o'rni va mohiyati, shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy ijtimoiy omillarni ilmiy-nazariy tadqiq etish, shaxs va jamiyat munosabatlari qonuniyatlarini o'rganish talab etiladi.

I BOB. PSIXOLOGIYADA SHAXS TUSHUNCHASINI O'RGANISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

1.1. Sharq mutafakkirlarining shaxs to'g'risidagi qarashlari

Shaxs - alohida kishi, ijtimoiy-axloqiy mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan individ. Bu tushuncha barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z predmeti nuqtai nazaridan ishlatiladi.

Ko'zga ko'ringani, namoyon bo'lgani uchun insonni bashar, insoniyatni esa bashariyat deyдилar. Jism egasi bo'lmish har bir bashar shaxs darajasiga ko'tarila olmasligi ham mumkin.

Psixologiyada shaxs to'g'risidagi nazariyalarda individ degan atama va tushuncha bor. Bu so'z lotincha individium degan so'zdan kelib chiqqan bo'lib, bo'linmaydigan degan ma'noni anglatadi, bu atama mustaqil yashaydigan tirik vujud, har bir shaxs va hayvonni bildiradi.

Shaxs to'g'risida so'z borar ekan, avvalo ijtimoiy degan iboraga qisqacha to'xtab o'tishni joiz ko'ramiz. Chunki shaxs va ijtimoiy tushunchalari bir-biriga bog'liqdir. Kundalik turmushda ijtimoiy, ijtimoiy borliq, ijtimoiy ong, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy kabi iboralarga ko'p duch kelamiz. "Ijtimoiy" atamasi arabcha "ijtimo'" so'zidan olingan bo'lib, kishilik jamiyatiga, uning hayoti va qonuniyatlarga tegishli narsani bildiradi. Ijtimoi' deganda esa kishilarning yig'ilishi, to'planishi tushuniladi.

Shaxs - biofiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va estetik fazilat va xislatlarning yaxlit bir butunlikka aylanishi hamda munosabatlar tizimi bilan qamrab olinishidir. Shaxsning shakllanishida quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi: biologik (nasl), tabiiy muhit, madaniy muhit, ijtimoiy tajriba, shaxslar bilan munosabat. Shaxsning biofiziologik jihati ovqatlanish, joylashish, jinsiy aloqalarga kirishish, bola tug'ilishi kabi individual faoliyati bilan bog'liq hodisalardir. Shaxsning shakllanishiga tabiiy aloqador buyum va aloqalar olami fizik muhit deb ataladi. Shaxs madaniylashgan jonzot, ijtimoiy-tarixiy tajribaga ega bo'lgan

muayyan avlod vakili, shaxslararo munosabatlar sub'ekti bo'lishi ham mumkin. Bu uch omil ham shaxs hayoti va faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning paydo bo'lishi, uning jamiyatdagi o'rni va mohiyati doimo psixologiya fanining muhim va bahs talab sohalaridan biri bo'lib kelgan. Insonning mohiyatini dastlab o'rgangan olimlar Xitoydagi Konfusiy va uning izdoshlari edi. Eramizdan ilgari 298-238 yillarda yashagan olim Sen-szining fikricha, shaxsdagi tug'ma xususiyatlar - bu samoviy munosabatlar hosili bo'lib, ularga ta'lim yoki ularni odamning o'zi yaratishi vositasida erishib bo'lmaydi. Inson yovuz tabiatga ega. Insondagi ezgulik manfaatlar uchun orttirilgan fazilatdir. Hozirgi inson tug'ilishidan boshlab foyda olishga intiladi. Bu shunga olib keladiki, kishilar o'zaro raqobatlashadilar va bir-birlariga yon bermaydilar. Shuning uchun ham tarbiya yo'li bilan inson tabiatini o'zgartirish, yaratilgan qoidalar asosida ta'lim berib, ularni adolatlilikka va mas'uliyatlilikka o'rgatish lozim.

Shaxs ijtimoiy mavqei uning tashqi xulqida ham, tashqi qiyofasida, yurish turishida va hatto muomalasida ham o'z ifodasini topadi.

Shaxsning ijtimoiy roli nazariyasida belgilangan va erishilgan ijtimoiy mavqelari o'zaro farqlanadi. Belgilangan mavqe - bu shaxs xizmati va xatti-harakatidan qat'iy nazar, jamiyat tomonidan belgilab qo'yiladi. Shaxsning etnik kelib chiqishi, tug'ilgan joyi, oilasi, zoti va boshqalar shular jumlasidandir. Erishilgan mavqe deganda, shaxsning o'z xatti-harakati, qobiliyati bilan erishgan mavqei tushuniladi. Masalan: yozuvchi, firma boshlig'i, direktor, professor va shu kabilar. Bulardan tashqari, yana shaxsning tabiiy va kasbiy lavozim mavqei ham o'rganiladi. Shaxsning tabiiy lavozimi erkak va ayoli, bolalik, o'smirlik, yoshlik, o'rta yosh, keksalik davrlarini bildirsa, kasbiy lavozim mavqei shaxsning ijtimoiy - iqtisodiy va ishlab chiqarish - texnik holatini (muhandis, temirchi, xaydovchi va boshqalar) bildiradi.

Ijtimoiy mavqe shaxsning muayyan ijtimoiy tizimida egallagan konkret o'rnini ifodalaydi. Ijtimoiy rol esa shaxsning ijtimoiy tizimida egallagan mavqe bilan bajaradigan faoliyati majmuini ifodalaydi. Masalan, ma'muriy - buyruqbozlikka asoslangan. Bunday shaxs tipiga "yuqori" ko'r- ko'rona, so'zsiz

bo'ysunish, dunyoqarashi tor, bir tomonlama, o'z mansabini saqlab qolish va yuqori mansablarga erishish yo'lida har qanday qabihlikdan qaytmaydigan, munofiqlik kabi xususiyatlarga ega bo'lganlar kiritiladi. Bunday kishilarning shaxs xususiyatlari ular bajaradigan vazifasiga o'z o'rnini bo'shatib beradi. Shaxs tipining bunday ko'rinishi hozirda ham jamiyat hayotini yangi sharoitda erkin rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shaxs faoliyati deganda, uning ichki va tashqi tendensiyalarining ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik insonning shaxs sifatidagi darajasining asosiy ifodasi bo'lib uning yuksak qadriyatli ehtiyojlarini qondirishlari va sifat ko'rsatkichidir. Demak, ijtimoiy faollik shaxsning muhim sifatlaridan biridir.

Sharq mutafakkirlarining shaxs to'g'risidagi Psixologik qarashlari mohiyat e'tiboriga ko'ra, g'arb Psixologlarining ijtimoiy yondashuvlaridan farq qiladi. Qadimgi sharq kishisi uchun o'zlikni anglash, ma'naviy komillikka erishish, ozodlik tushunchasi moddiy borliqdan voz kechish, tashqi dunyo tashvishlarini inkor etish, o'zlikda sokinlik topishga intilish harakatlaridan iboratdir.

Sharq kishisi uchun individualizm hamisha halokat, jamoada uyg'unlashuv esa sokinlik va bexavotirlik omili bo'lib kelgan. Jamoaviy xavfsizlikni ta'minlash ehtiyoji Sharqda juda qadimgi davrlardayoq davlatchilik tizimlarini tarkib toptirdi.

Sharqda jamoatchilik fikrini o'rganishda Abu Mansur al-Moturidiyning o'rni beqiyosdir. Sunniylik asosidagi islomdagi katta yo'nalishni tashkil etuvchi Moturidiya maktabining asoschisi Abu Mansur al-Moturidiy asarlariga nafaqat dinshunoslik, balki jamiyat, jamoa, ijtimoiy jarayonlar va xususan shaxs haqidagi qarashlariga ta'limot sifatida yondashish, ularni Sharq xalqlari hayot tarzi, mentalitetiga muvofiq keluvchi, ularni g'oyaviy, e'tiqodiy yakdillikka undovchi yaxlit ilmiy psixologik konsepsiya sifatida baholash va har tomonlama o'rganish maqsadga muvofiqdir.

G'arb olimi Ulrix Rudolf shaxsning islom e'tiqodi doirasidagi faoliyati, erkin fikrlash huquqi va imkoniyatlarini atroflicha asoslagan Al-Moturidiy qarashlarini oqilona me'yor, shaxs sha'ni, mavqeiga eng muvofiq keluvchi nazariya deb

baholaganda, buyuk hamyurtimizning xarakterli qirralarini ochib bergan. Darhaqiqat, inson shaxsi va mavqei masalasi, uni turli ijtimoiy-siyosiy, kerak bo'lsa, diniy tazyiqlardan himoya qiluvchi Al-Moturidiyning murosaviy muvozanat konsepsiyasini, islomni anglash jarayonlaridagi ijobiy jihatlar yig'indisigina emas, balki shaxs to'g'risidagi yondashuvlar sintezi, deb baholash maqsadga muvofiqdir. Al-Moturidiy shaxs va jamiyatning voqelik mohiyatini ramzlarda talqin etishga diqqatni qaratadi. Shaxsning intellektual kamoloti, shartlilik, ramzlarga ko'chish darajasiga, o'zlikni nechog'li mavhumlashtirishga bog'liqligini, bu esa o'z navbatida mohiyatni shunchalar to'g'ri anglash imkoniyatini berishini asoslab beradi.

Al-Moturidiy jabariylarning, shaxsni hamma amallari oldindan uning taqdirida yozib qo'yilgan, shu boisdan u o'zi qilayotgan ishlarga mas'ul emas, degan nuqtai nazarini ham, qadariylarning, Olloh inson faoliyatlari va amallarining himoyachi emas, degan nuqtai nazarini ham asosli tanqid qilib, shaxs yaxshi va yomon amallarini o'z erkiga ko'ra tanlashi va bu yo'lda Ollohning madadini olishi nazariyasini ilgari suradi. Shu asoslarda Al-Moturidiy shaxs va jamoatchilik fikrining ma'naviy asoslari kuchli insoniy mazmun bilan boyitilishiga katta hissa qo'shadi.

Al-Moturidiy shaxsdagi ixtiyor, tanlash imkoniyati jamoaga qarshi yo'naltirilmasligi, shaxs davlat oldida mas'ul bo'lgani kabi, davlat ham shaxs oldida mas'ul bo'lishini nazariy asoslaydi. Shuningdek, Al-Moturidiy shaxsning tanlash va iroda erkinligi jamoaviy iroda oldida ustuvor kuch emasligi, jamoaviy iroda shaxsdan yuqori turishini asoslaydi. E'tiqod qiluvchi shaxs o'z ixtiyori bilan jamoaga qarshi turmasligi lozim. Chunki, umumiylikda xususiylikka ko'ra haqlik hissasi ko'proqdir. Mazkur davlat Moturidiy qarashlarining Sharq xalqlari mentalitetiga islom e'tiqodini muvofiqlashtirish, islomni yanada inson manfaatlariga yaqinlashtirish rag'batidan yuzaga kelgan, deb hisoblash mumkin.

Buyuk mutafakkir olim Abu Nasr Forobiyning qarashlarini o'rganishda shaxs xislatlari to'g'risidagi ijtimoiy fikrlari nihoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy

o‘zining ijtimoiy qarashlarida shaxsning tuzilishi, ruhiyati, moddiy va ma’naviy olamini o‘rganishga katta e’tibor bergan.

Forobiy ta’limotida shaxs barcha boshqa jismlarda bo‘lmagan qobiliyat va kuchga – ruhiy quvvatga – aql va so‘zlash qobiliyatiga ega, bu kuch uni tabiatdagi boshqa jismlardan ajratib turadi va uning ustidan hokim bo‘lish imkoniyatini berganligi namoyon bo‘ladi.

Forobiy bu dunyoqarashida narsa hodisalarni bilish, inson aqlini bilim bilan boyitish uni ilmiy, ma’rifatli qilish uchun xizmat qiluvchi ruhiy jarayonlarga alohida e’tibor beradi.

Sharqda shaxs va jamiyatni Psixologik anglash va o‘rganish Al-Forobiy tomonidan jiddiy kengaytirildi. U Abu Mansur al-Moturidiy tomonidan ilmiy-teologik jihatdan asoslangan shaxs erki nazariyasini yanada rivojlantirdi. U o‘zining «Fozil odamlar shahri» asarida shaxsdagi insonlik mohiyati o‘zlikni anglashdan boshlanishi, fozil inson voqea va hodisalarning mohiyatini idrok eta bilishini, mohiyatga intilish haqni tanish ekanligini, insonga berilgan ruh aqlni rivojlantirishga, unga quvvat bag‘ishlashga mas’ul ilohiy kuch ekanligini, aql esa inson tomonidan narsalarni mohiyatan tanlab farqlashga ko‘mak berishini asoslab beradi.

Forobiy olamni anglashda vorisiylik omilining juda katta kuchga ega ekanligini alohida qayd etadi. Uning fikriga ko‘ra, shaxs barcha haqiqatlarni o‘zining qisqa umri davomida anglashga, tabiat va jamiyatning barcha siru-sinoatlarini tushunib, idrok eta olishga qodir emas. Shu boisdan shaxs o‘zidan oldingi ajdodlari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni boricha shubhalanmay o‘zlashtirishi zarurligi, ilm-ma’rifat bobida yetuk donishmandlar fikrlariga ergashishi lozimligini alohida ta’kidlaydi. Forobiy jamiyatning boobro‘ shaxslari, olimlari, oqil kishilarini ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchlaridir, deb hisoblaydi. Forobiy o‘sha paytdayoq ijtimoiy fikrning ahamiyati katta ekanligini chuqur anglab, zamonaviy Psixologiyada ko‘p qo‘llanuvchi ekspertlar, ya’ni o‘z davrining yetuk donishmandlari fikrlariga tayanib ish tutish zarurligiga urg‘u beradi. «Donishmandlarga ishonib, ularga ergashuvchi odamlar o‘sha narsalarni

donishmandlar bilganday bilib oladilar. Zero, donishmandlarning bilimlari, eng exshi bilimlardur».

Abu Nasr Forobiy “Arastu falsafasi” asarida qadimgi yunon olimining inson haqidagi fikrlarini quyidagicha sharhlagan edi: “Arastu insonda, hayvonlarda bo‘lmagan boshqa imkoniyatlar, ruh va ruhiy kuchlardan paydo bo‘lolmaydigan sabab va asoslarni topadi. Inson tabiati va unda mavjud bo‘lmish tabiiy kuchlarni tushuntirish borasida ular, faqat ruh faoliyati (harakatlari, ta’sirlari) ga qaraganda yuksakroq faoliyat (harakatlar) uchun moslashganlar, degan fikrga keladi... Bu o‘rinda Arastu, nega bunday bo‘lishini o‘rganishga majbur bo‘ldi va inson nutq egasi ekanligini topdi, nutq esa aql bilan bog‘liqdir.... Aqlning holati xuddi ruh va uning tabiiy holati kabi ekanligi, aql qismlarga yoki kuchlarga bo‘linishi, inson mohiyat kasb etishiga vosita bo‘luvchi faol (ta’sirchan) asos ekanligi xuddi tabiatda bo‘lgani kabi u - aql o‘z maqsadi (g‘arazi) ning sabab va asosi ekanligi Arastuga ravshan bo‘ladi”.

Shaxsning muhim xususiyatlaridan biri - uning ijtimoiy mavjudot ekanligidir. Shaxs o‘zining ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida o‘zi kabi insonlar bilan birlashishga intiladi. Shaxsning ijtimoiylashuvi sun’iy xarakter kasb etib, u shaxs sifatida boshqa insonlar o‘rtasidagina shakllana oladi. Agar u insoniy munosabatlardan xoli bo‘lsa, o‘zidagi yovuzlik yoki hayvoniy tabiatidan xalos bo‘la olmaydi. Insondagi bu tabiiy xususiyatni Abu Nasr Forobiy quyidagicha ifodalab, “Har bir inson o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kiritmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi.... Shu sababli yashash uchun zarur bo‘lgan, kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o‘zaro yordamlashuvi orqaligina odam o‘z tabiati bo‘yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko‘paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi”, deb ta’kidlagan.

Farobiyning fikricha, insonlar o'rtasida o'zaro hamkorlik, mehr-oqibat, iymon-e'tiqodni qaror toptirish har bir shaxsning vazifasi hisoblanadi. Chunki qudratli davlat, farovon jamiyat va kuchli ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar shaxs ma'naviyati zahirida vujudga keladi. Har bir alohida shaxsning kamoloti orqali millatning va xalqning ma'naviy kamolotiga erishiladi, ana shu yo'l orqali huquqiy, demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati barpo etiladi.

Zero, shaxslar o'rtasidagi adolat va o'zaro hurmat-izzat, ijtimoiy hamkorlik va o'zaro yordamlashuv qonun qoidalari hukmron bo'lgan jamiyat adolatli va fozil jamiyatdir. Fozil jamiyatda barcha shaxslar jamoa uchun va o'zlari uchun mehnat qiladilar va adolatli rizq topadilar. Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam qiluvchi shaxslarni birlashtirgan shahar fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan insonlar jamoasi fazilatli jamoadir.

Forobiyning fikricha shahar jamoasi insonni ijtimoiylashtiruvchi muhim omildir, bundan tashqari olim jamiyatning ijtimoiy siyosiy tuzilishini, tashkilot va uyushmalarini ham o'z asarlarida chuqur tahlil qilgan, shu bilan birga alloma fozil jamiyatning ijtimoiy hayotini, jamiyat ijtimoiy - tarixiy sharoitlariga qarab o'zgarib turadigan hayotiy qonuniyat deb hisoblaydi. Ya'ni jamiyatning mobillik holatda bo'lishi tabiiy qonuniyatdir.

Mutafakkir shaxslar jamoasini undagi a'zolar soniga qarab uch guruhga ajratdi.

1. Yirik jamoa: bu jamoa yer yuzidagi barcha xalqlarni birlashtiradi.
2. O'rta jamoa: ayrim xalqlar va davlatlar jamoalarini birlashtiradi.
3. Kichik jamoa: shahar, mahalla, oila va boshqa shu kabi jamoa a'zolarini birlashtiradi. Forbiy o'zining ijtimoiy risolalarida shaxsning jamiyatdagi o'rni to'g'risida ham fikr yuritadi.

Ulug' bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy ham Psixologiya nazariyasini rivojlantirish ishiga ulkan hissa qo'shdi. Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" deb nomlangan qomusiy kitobini to'la ma'noda insoniyat tarixining o'tgan 5 ming yilligi voqealari tahlili va sinteziga bag'ishlangan mumtoz etnoPsixologik asar, deb baholash mumkin. Mazkur kitobda ulug' mutafakkir asar

yozilishi jarayonida olib borgan Psixologik tadqiqotlari, qoʻllagan usullari xususida soʻz yuritgan.

Ayni chogʻda Beruniy olamni ijtimoiy taraqqiyotga olib keluvchi kuch ziddiyat va qarama-qarshiliklar emas, balki turli ijtimoiy darajalardagi murosa va konsensus ekanligini uqtiradi. “Qarama-qarshiligi ravshan ayon boʻlgan narsaga qanday ishonib boʻladi”, deb ulugʻ mutafakkir qarama-qarshiliklardan xoli boʻlgan jarayonlarida oʻzgarishi natijasida shaxs ehtiyoji kuchayishiga ishora qiladi.

Beruniy psixologiyadagi muhim soha - shaxsning ijtimoiy tabaqalashuvi haqida ham fikr yuritib, “Tillarning turlicha boʻlishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli hoxishlarni ifodalash uchun (zarur) boʻlgan soʻzlarga ehtiyoj tugʻilishidir. Uzoq zamonlar oʻtishi bilash haligi iboralar koʻpayib, yodda saqlanishi va takrorlanishi natijasida tarkib topib, tartibga tushgan”, deb taʼkidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy shaxsning bilimli boʻlishi umuminsoniy qadriyatlarni oʻrganishning kaliti ekanligini alohida aytib oʻtgan. Ilm-maʼrifatli shaxs jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir. “Ilmning foydasi ochkoʻzlik bilan oltin-kumush toʻplash uchun boʻlmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega boʻlishdir”, deb aytgan.

Umuman, Abu Rayhon Beruniy ilm-fanning buyuk homiysi va muxlisi sifatida mamlakatning obodligi ilm-fanning gullashida, shaxsning baxti esa uning bilim va maʼrifatida deb bildi. Yaratgan asarlarida u har bir inson oʻz qalbining farmoyishiga koʻra xayr-ezgulikka intilishi, sunʼiy obroʻ, shuhrat qozonish uchun muruvvat va sharofat koʻrsatmasligi kerakligini taʼkidlaydi.

1.2. Gʻarb mamlakatlari olimlarining shaxs haqidagi talqinlari

Ulugʻ mutafakkir Abu Ali Ibn Sinoning Psixologik qarashlari oʻzining ilmiy teranligi, voqelikka xushyor baho berish xususiyati bilan ajralib turadi. Ibn Sino olamning barqaror amal qilishi jamiyatning sinergetik, yaʼni oʻz-oʻzini idora qilish, mustaqil boshqarish xususiyatining ishga tushishi va harakatlanishi bilan izohlanadi, deb aytgan. Konservativ teologiya nazariyasida mavjud boʻlgan hamma

narsalarning yuz berishida taqdiri azalning roli, ilohiy hukmning mutloqlashuvi g'oyasiga qarshi chiqib, Ibn Sino dunyo kamoloti uchun shaxsning erkin faoliyatiga katta ehtiyoj borligini asoslab beradi.

Ibn Sino Ollohning aqldan tashqari faoliyatlarga ham qobilligi g'oyasiga qarshi chiqib, Olloh faoliyati aqldan tashqari bo'lishi mumkin emasligi, yaratilgan narsalarning barchasi insoniy aql tomonidan idrok eta olinishi kerakligini ham isbotlab bergan.

Ibn Sino dunyoning abadiyligi har bir yuz beruvchi narsaning albatta bir kun kelib inson tomonidan yaratilishi mumkinligi bilan izohlanishini, dunyoda g'ayri tabiiy narsalarning yo'qligini ta'kidlaydi. Bu fikr Psixologlarni shaxs va jamiyat hodisalarini o'rganishda faqat isbot etilishi mumkin bo'lgan shaxs va ijtimoiy jarayonlar muammolarini tadqiq etish maqsadga muvofiqligi g'oyasi bilan ham qurollantiradi.

Inson fikrlovchi mavjudotdir. U ko'rgan va eshitganlarini yodda saqlaydi, o'z xayoloti, tasavvur qobiliyati vositasida bilimlarni, ma'lumot va axborotlarni tahlil qiladi, umumlashtiradi, ularni transformatsiyalaydi, boshqalarga uzatadi, bilim va tajribalarni takomillashtiradi, o'z maqsadlari, orzulari va istaklarini tasavvurlay oladi. Insondagi bu xususiyatlarni Ibn Sino "Inson umumiy qarashlarga nuqtai nazar bildirish va alohida narsalar to'g'risida fikrlash qobiliyatlariga egadir: u foydali yoki zararli ishni qilish va qilmaslik, go'zallik va xunuklikni farqlash, yaxshi va yomonni ajratish qobiliyatlariga ega. Ular qiyoslash va tafakkurlash vositasida shakllanadi.... Shunday qilib, inson ruhining birinchi kuchi aqliy mushohadaga taalluqli bo'lib, u aqliy tafakkur deb ataladi. Ikkinchi kuch esa tajribaga taalluqli bo'lib, u tajribaviy fikrlash, deb ataladi. Ular haqiqat yoki yolg'onni, shuningdek, xususiy narsalarga nisbatan yaxshi va yomonni aniqlash uchun xizmat qiladi", deydi.

Allomaning fikricha, jamiyat paydo bo'lishining eng asosiy sababi shaxsning hayotiy faoliyati va uning o'z naslini ustuvor davom ettirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Uning andishalariga ko'ra ustuvor va barqaror yashash uchun shaxslar bir-birlari bilan birgalashib, o'zaro hamkorlikda bo'lib

yordamlashish, bir-birlarini qo‘llab-quvvatlab, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning almashinuvini ta‘minlash imkoniyatini yaratishga majburdirlar.

“Ma‘lumki, - deydi Ibn Sino, - inson o‘zga hayvonlardan o‘zining shunday xususiyati bilan farqlidirki, u alohidalik holatida va o‘zaro aloqa va munosabatda bo‘lmasdan turib shodu hurramlikda hayot kechira olmaydi. Inson o‘z ehtiyojlarini qondirish va qo‘lga kiritishni o‘zga shaxslar bilan hamkorlik va o‘zaro ko‘maklashish tufayli amalga oshira oladi. Demak, bundan ayon bo‘ladiki, inson hayoti va uning amaliy faoliyati uchun jamoat zarurdir. Jamoat esa faqat hamkorlik va o‘zaro yordamlashish vositasi bilan mavjud bo‘la oladi”.

Ibn Sinoning fikriga ko‘ra, odil jamoada biron shaxs ham ishsiz biron bir ish bilan ta‘minlanmagan bo‘lmasligi kerak. Jamoa tuzumi shaxslarning o‘zaro yordamlashish va hamkorlik me‘yorlari asosida barqaror va poydor bo‘la oladi. Mutafakkir o‘ylashicha, o‘zaro hamkorlik va yordamlashish uchun qonun va adolat kerak. Qonun va adolatning amal qilishi uchun shunday shaxs zarurdirki, u qonun va adolat qoidalarini tartibga solib, bajarilishini ta‘minlay olsin. Shu bilan birga u insonlarni yumshoq, ta‘sirchan so‘zlar bilan qabul qilingan, o‘rnatilgan qonunlarga rioya qilishga da‘vat eta olishi kerak. U shaxslarning o‘z ixtiyoricha amal qilishlariga yo‘l qo‘yib, bub orada sustkashlik qilmasligi va shaxslarning o‘zlaricha mulohazalar yuritishlariga befarq bo‘lmasligi lozim. Agar shaxslar orasida nizo ro‘y bersa, ularning har biri adolatni shunday narsa deb bilsinki, u narsa jamoa a‘zolarining barchasi uchun foydali bo‘lsin. Adolatsizlikni shunday narsa deb bilsinki, u narsa shaxslar uchun ziyon keltiruvchi hisoblansin.

Yana shuni ta‘kidlash lozimki, Ibn Sinoning shaxs to‘g‘risidagi qarashlari nafaqat Sharqda katta nufuzga ega bo‘lgan balki G‘arb mamlakatlari mutafakkirlarining ham nazariy ijodiga, ularning Psixologik va falsafiy qarashlariga katta ta‘sir etgan.

Ulug‘ donishmand va mutafakkir olim Nosir Xisrav o‘zining ijtimoiy qarashlarida insonda asliy - ilohiy jihat borligini va u o‘z haqiqatini bilishga qodir ekanligini ta‘kidlaydi. Buning uchun inson hayotini behuda o‘tkazmasligi, asliga yetish uchun sa‘y-harakat qilishi va moddiy ehtiyoj girdobiga tushmaslikka da‘vat

etadi. Uningcha, shaxs moddiy-jismoniy olam qurshovida o'zligining aslini bilolmaydi. Aksincha uni unutib qo'yadi. Inson yomonliklardan xalos bo'lishi uchun moddiy nafsidan g'olib kelishi, poklanishi zarur. Buning uchun esa shaxs bir qancha pag'ona – bosqichu darajalarni bosib o'tishi lozimdir. Shaxs poklanish mashaqqatlari oqibatida bosqichma-bosqich, manzildan-manzilga o'taversa o'zining jismi-tanini jismoniy olamda qoldirib, qalbiy-ruhiy olamga yetadi. Insonni ikkiga ajratgan olim uning axloqiga ham xuddi shunday munosabatda bo'ladi. Uning fikricha, aslida shaxsning yomoni bo'lmaydi. Yomon tarbiya ko'rgan, fe'l-atvori yaxshi yoxud noloyiq shaxslar bo'lishi mumkin.

U shaxsning ma'naviyati haqida so'z yuritib ma'naviyatni yuksaltirish uchun ilm o'rganish va aql-idrokni takomillashtirish zarur, deb aytadi. Shaxs hissiyot, jismoniy sezgilar va idroku aql vositasi bilan olam asrorini va o'zining aslini bila olmaydi. Ruhiy-botiniy ko'z, qalb nigohi bilangina shaxs o'zini, aslini va yaratuvchisining mohiyatini bilishi mumkin, deb ta'kidlaydi.

Allomaning asarlarida shaxslar yuksak insoniylik sifat va fazilatlariga da'vat etiladi. U shaxslararo o'zaro hurmat, samimiyat qaror topishi tarafdori edi.

Nosir Xisravning talqiniga binoan, inson Xudoni va koinotni bilib olishni o'zligini bilib olishdan boshlamog'i lozim. Zero, vujudlikning bir necha jihatlari mavjud. Shaxs dastlab o'zligining haqiqiy va o'zgaruvchan moddiy jihatlarni aqlu-tamyiz bilan farqlab olishi lozim.

Shaxs to'g'risidagi bunday qarashlar Nosir Xisravni o'z davrining ulug' insonshunos allomasi sifatida talqin etish asosini beradi.

Buyuk mutafakkir olim Al-Xorazmiy o'z Psixologik qarashlarida shaxsning xulq-atvori, xatti-harakati mantiqiy fikrlashga asoslangandagina mukammal shakllanishi mumkin, degan g'oyani ilgari suradi. Olim shaxsning yuksak ma'naviy fazilatlarini umuminsoniy qadriyatlar doirasida talqin etadi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ma'naviy omillarni yuksak baholaydi. U shaxsni shakllantirishning asosi ma'naviy omillarga bog'liq, deb ta'kidlaydi.

Buyuk olim Imom G'azzoliy qarashlarida jamiyatda insoniy munosabatlar tizimida do'stlashish va birodar bo'lishni shaxslararo ijtimoiy distansiyaga

(masofa) yaqinlashtiruvchi eng kuchli omil sifatida qarab, bu birodarlikni o‘zaro xaq-huquqlarga rioya etgan holda bo‘lishi ijtimoiy munosabatlarni yanada mustahkamlashini ta’kidlaydi. G‘azzoliy shaxsning bunday haq-huquqlarini tizimlashtirib bir necha turga bo‘lgan. Olim shaxsning o‘z birodari ustidagi haqlarini bayon qilib yozadiki:

“Insonning o‘z birodari ustidagi birinchi haqqi - uning hojatlarini chiqarish, bajarish. Buning bir qator darajalari mavjud. Eng quyisi shuki, qodir bo‘lishicha birodari so‘ragan narsani ochiq yuz va xursandchilik bilan berish.

O‘rtachasi shuki, birodari biror narsani so‘ramasidan oldin uning hojatlarini ravo etish.

Eng oliysi esa ehtiyojini to‘la bajarish, uning ehtiyojlarini o‘zining ehtiyojidan muqaddam ado etishdir.

Solih salaflardan biri do‘stining vafotidan qirq yil o‘tsa xam, uning ahli-ayoli hojatlaridan ogoh bo‘lib, ehtiyojlarini ravo etgan ekan.

Ikkinchi haqqi - ba’zan sukut qilish va goho so‘zlash. Sukut etish shuki, do‘stining ayblarini uning borida ham, yo‘g‘ida ham zikr etishdan tiyiladi. (Agar hech kim bo‘lmasa, uning ayblarini o‘ziga bildirish vojib...

Birodari yomon ko‘radigan barcha narsalar borasida sukutda bo‘lish lozim. Faqat amri ma’ruf yoki nahiy munkar ishida so‘zlash vojib bo‘lsa, sukut etmaydi. Birodarining ro‘parasida shunday yo‘l tutish bir ma’noda unga yaxshilik bo‘ladi”.

Imom G‘azzoliy inson boshqa insonlardan ayb qidirishga harakat qilmasligi kerakligini uqtirib “bilingki, chindan ham barcha aybu nuqsondan pok insonni istasangiz, uni hech qachon topa olmaysiz. Kimning yaxshiliklari yomonliklaridan ko‘p bo‘lsa, bu ulug‘likdir. Ibn Muborak aytdilar: “Mo‘min kishi uzrlarni qabul etadi, munofiq esa xato, yanglishishlarni istaydi”. Fuzayl aytadilar: “Mard deb birodarlarining xatolarini kechirgan kishiga aytiladi. Do‘sting haqida yomon gumon etishni tark qilish zarur. Imkonning boricha uning fe’lini yaxshilikka yo‘yish lozim”, - deb ta’kidlaydilar

G‘azzoliy shaxsning ijtimoiy munosabatlariga putur yetkazuvchi shaxsiy adovatning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan o‘zgalardan yomon gumonda bo‘lishdan qaytaradi.

Ma’lumki Sharqda G‘arbdan farqli o‘laroq azaldan shaxslar jamoasi jamiyatda, ijtimoiy munosabatlarda ko‘rinib kelgan. Bu omil Sharqda shaxslarning o‘zaro mehr rishtalarini bog‘lashligi bilan jamiyatning hamjihatligini ta’minlab kelgan. G‘azzoliy shaxsdagi egoizmni qoralab shunday deydi: “Bilingki, kishining iymoni yaxshi ko‘rgan narsasini birodariga ham ravo ko‘rmagunicha mukammal bo‘lmaydi. Oxirat darajalarining eng quyisi - o‘ziga muomala qilinishida yaxshi ko‘rgan narsa bilan birodariga qilgan muomaladir. Hech shubha yo‘qki, birodaringizdan sirlaringizni berkitishini istaysiz. Va yomonliklaringizdan sukut etishini istaysiz, bas, agar buning ziddi zohir bo‘lsa, sizga juda qiyin bo‘ladi. Birodaringizga azmu qaror etmagan narsangizni undan kutishingiz qanday bo‘ladi?

O‘zingiz qilmagan insofni har qachon boshqadan kutsangiz, Alloh taoloning quyidagi oyati ostiga kirib qolasiz: “Ular odamlardan (biror narsani) o‘lchab olgan vaqtlarida to‘la qilib oladigan, ularga o‘lchab yoki tortib bergan vaqtlarida esa kam qilib beradigan kimsalardir” (“Mutaffifin” surasi, 2-3-oyatlar).

Imom G‘azzoliy shaxslar o‘rtasida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan konfliktli holatlarni tahlil qilib ziddiyat keltirib chiqaruvchi omillar paydo bo‘lishining oldini olishni tavsiya qiladi.

Mutafakkir konfliktning oqibati dushmanchilik ekanligini ta’kidlab: “Bilingki, birodarlar o‘rtasida bir-birlarini yomon ko‘rish va hasad sabablaridan eng kuchlisi va zararlisi befoyda va o‘rinsiz tortishuvdir. Inson o‘zining fazilati va aqli ziyodaligini boshqalar oldida izhor etish hamda bahs etuvchini tahqirlash maqsadida bunday tortishuvlarga kirishadi. Kim birodari bilan befoyda bahslashar ekan, uni baxil va axmoqqa chiqaradi yoki go‘yo o‘zi yaxshi bilgan mavzuni birodari tushunmaydi va bunda xato qildi, deb o‘ylaydi. Bu ishlarning barchasi birodariga nisbatan xaqorat hisoblanadi va uning achchiqlanishini keltirib chiqaradi. O‘rtada esa dushmanlikni yuzaga keltiradi. Bu birodarlikning ziddidir, deydi.

“Insonning o‘z birodari ustidagi to‘rtinchi haqqi til bilan so‘zlash. Darhaqiqat, birodarlik makruh narsaga sukut etishni taqozo qilganidek, sevimli narsani unga so‘zlashni talab etadi. Bu narsa birodarlikka xosdir. Zero, kim sukut bilan qanoat etsa, qabr ahliga do‘st bo‘ladi. Birodarlik deganda ulardan manfaat topish tushuniladi, ulardan xalos bo‘lish iroda etilmaydi. Chunki sukutning ma‘nosi aziyatdan tiyilishdir...”, deb ta’kidlaydi.

Sharqning buyuk allomasi Yusuf Xos Hojib shaxs va jamiyat borasidagi fikr yuritar ekan, o‘z davri, mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum, ma’naviy-moddiy hayot jarayonlari xususida mufassal ma’lumotlar beradi. U o‘sha davrning turli ijtimoiy tabaqalari, toifalari va guruhlari, ularning turmush tarzi, rasm-rusumlari, qonun-qoidalari, hunar va kasbu-korlari, davlat tuzumini qanday asoslarda qurilganligi, shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, har bir tabaqaga mansub shaxsning dunyoqarashi xususida atroflicha Psixologik asoslangan fikr-mulohazalarni o‘rtaga tashlaydi.

Yusuf Xos Hojib shaxsning jamiyatdagi tom ma’nodagi kamoloti faqat ilm vositasida amalga oshadi, deb hisoblaydi. Dunyodagi barcha boyliklar mavaqqatdir, o‘tkinchidir, sarflansa tugab bitadi, faqat bilim boyligigina qancha sarf etilsa, shuncha ko‘payaveradi, deb o‘rgatadi.

Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida insonni ulug‘laydi. Uning fikricha, insonning ulug‘ligi uning aql-idroki, so‘zlash qobiliyati, bilimi, uquvi, hunarga egaligidadir.

Buyuk mutafakkir o‘z qarashlarida uquv va bilimni farqlaydi: uquv tug‘ma ravishda inson ruhiyatida mavjuddir, bilim esa o‘qish-o‘rganish va mehnat tufayli egallanadi. Agar ularning har ikkisi o‘zaro birlashsa, insonning qadri ortadi.

Yusuf Xos Hojib o‘g‘il bolalarning bir necha san’at turlarini va hunarlarni tugal o‘rganmog‘i lozimligini ta’kidlaydi, bu shaxsning kelajak hayoti, jamiyat rivoji uchun zarurligini aytadi.

Alloma farzandlarga turli bilim va hunarlar o‘rgatilmog‘i kerakligini aytib, ularni go‘zal axloqli shaxs qilib voyaga yetkazishni ota-onalarga maslahat beradi.

Umuman, Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” dostonida shaxsning insoniy fazilatlari xususida qilgan hikmatli pandu nasihatlar bilan shaxslarni har bir ishda

aql-idrokli, o'zgalarga g'amxo'r va mushfiq bo'lishga, har bir ishni o'z o'rni va o'z vaqtida ado etishga da'vat etadi. Bir so'z bilan aytganda bugungi davr talabiga hamohang ravishda shaxsni komillikka hidoyat qiladi.

Sharqning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiyning asarlarida bevosita o'z davridagi barcha ijtimoiy guruhlariga tavsif beriladi va ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insonlarga, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligi bayon etiladi.

Alisher Navoiy jamiyatning miqdor va sifat jihatidan ijtimoiy bo'linganligi umuman olganda ijobiy hodisa ekanligi, bu tasniflanish doirasining qanchalik kengligi mamlakatdagi shaxslarning farovonlik darajasining ifodasi ekanligi xususida e'tiborga sazovor Psixologik qarashni asoslab beradi. Ulug' mutafakkir shaxslarning yuzdan ortiqroq ijtimoiy tabaqasi xususiyatlarini aniqlab, ularning mamlakat ijtimoiy tizimidagi o'rni va faoliyat imkoniyatlarini ravshan ifodalab beradi. Mazkur Psixologik tasniflashdan maqsad, ularni ijtimoiy foydalilik darajalarini oshirish ekanligi, jamiyatda shaxs shakllanishidagi roli asarning mazmunini tashkil etadi. Zero, jamiyatdagi tasnifning qanday ekanligini bilish ularning mazmunini yaxshilashga yo'l ochadi.

Alisher Navoiy nazdida ta'ma aralashgan yaxshilik hikmat, himmat shaxsning ma'naviyatiga salbiy ta'sir etuvchi holatdir. Ta'masiz yaxshilik qilish bu saxiylikdir. Insoniylikning eng yuksak belgisi saxiylik va himmatdir. Shaxsning yuksak insoniyligining o'lchovi bu vijdon hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'tmish merosimiz Sharq allomalarining bebaho asarlaridan to'g'ri foydalana olish, nafaqat milliy qadriyatlarimiz va ma'naviyatimizni yuksaltiradi, balki shaxsini shakllantirishda ham muhim hissa qo'shadi.

II BOB. SHAXSNING JAMIYATDAGI O'RNI VA IJTIMOYILASHUVI

2.1. Shaxsning jamiyatdagi o'rni va mohiyati

Psixologiya tarixida o'zining metodologik qurilmasi jihatidan farq qiluvchi shaxs to'g'risidagi nazariyalar mavjud.

Psixolog olimlar Znaneskiy va Ch.Tomaslar asos solgan shaxs ijtimoiy xulqini o'z-o'zidan boshqarishining dizpozision nazariyasida shaxs hayotidagi dunyoqarashlik va qadriyatli - normativ omillarga ko'proq ahamiyat beriladi. Bu nazariyaga ko'ra, shaxs ongi uning hayotiy o'rnini belgilaydi. Shaxs dunyoqarashi, ijtimoiy qadriyati, g'oyaviy va ma'naviy normalar uning faoliyatini belgilovchi asosiy omillardir. Shaxs to'g'risidagi bu nazariyada shaxsning Psixologik va ijtimoiy psixologik xususiyatlari bir qilib olingan.

Amerikalik Psixolog olim Tomas Uilyam Ayzek nazariyasining o'zagi - ijtimoiy vaziyat tushunchasi, u o'zaro bog'langan uch unurni o'z ichiga oladi: ob'ektiv sharoitlar (ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar); individ va guruhning ko'rsatmalari; harakatdagi shaxsning vaziyatini aniqlash. F. Znaneskiy bilan birga yozilgan "Polsha dehqoni Yevropada va Amerikada" kitobida asosiy diqqat ko'rsatilgan unsurlardan ikkinchisiga qaratilgan: individning vaziyatni belgilashi guruhliy qadriyatlarga to'g'ri kelmagan holda ziddiyatlar va ijtimoiy tarqoqlik kelib chiqadi, bu esa jamiyatning ko'pgina muammolariga sabab bo'ladi. Ijtimoiy hayot va shaxsning shaxsiy ko'rsatmalari asosini tashkil etuvchi sabablarni tekshirib, Tomas ruhiy tahlil ta'siri ostida shaxsning to'rtta asosiy istak-xohishlari to'g'risidagi ta'limotni ilgari suradi. Bular - yangi tajriba to'plash, xavfsizlik, tan olish, hukmronlik istaklaridir. Istaklar mijoz (temperament) bilan belgilanadi. Tomas shuningdek F. Znaneskiy bilan birga shaxslarning ijtimoiy atrof-muhitga moslashishlari tabiatiga ko'ra xillarga bo'lib chiqdi: zadagon-an'anaviy ko'rsatmalarga asoslanadi; bogem- moslashishning yuqori darajasi xos; ijodiy.

Tomasning fikricha, ijtimoiy hayot va madaniyat rivoji ixtiro va yangiliklarga qobiliyatli ijodiy shaxslar bilangina belgilanadi. Tomas tomonidan shaxsiy hujjatlar – "biogrammalarning" foydalanish tajribasi Psixologik tadqiqotlar

texnikasining rivojiga hissa qo'shdi. Umuman, uning shaxs to'g'risidagi nazariyasi Amerika Psixologiyasining empirik tadqiqotlarga o'tganligini ifodalab, Psixologiya fanining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Polyak Psixologi, XX asr Psixologiyasida gumanistik yo'nalish vakillaridan biri Znaneskiy Psixologiyaning predmeti bo'lib ijtimoiy tizimlar hisoblanadi, ulardan esa ijtimoiy borliq tashkil bo'ladi. Znaneskiy ijtimoiy tizimlarning to'rtta asosiy turini ajratib ko'rsatgan: ijtimoiy tizimlarning harakati; ijtimoiy munosabatlar; ijtimoiy shaxslar; ijtimoiy guruhlar. Znaneskiy Psixolog sifatida shaxs ko'efficientini doimo hisobga olishni talab qildi. Uning fikricha, ijtimoiy tizim tabiati shaxs ijtimoiy harakatining xususiyati bilan belgilanadi, ularning asosida esa qadriyatlar, ko'rsatmalar yotadi. Keng ma'noda bu ijtimoiy hodisalarni shaxslarning ongli faoliyati natijasi deb tushunish edi. Znaneskiy Psixologiyani dalillarni yig'ish asosida rivojlanuvchi fan deb hisoblagan, umumlashmalar uchun shaxs ko'efficientini hisobga olish imkonini beruvchi empirik ma'lumotlar asos bo'lib xizmat qiladi. Bu uslub Znaneskiy Tomas bilan birgalikda yozgan va Psixologiyada mumtoz asarlardan hisoblanuvchi "Polyak dehqoni Yevropada va Amerikada" kitobida birinchi marotaba qo'llanilgan. Znaneskiyning shaxs to'g'risidagi fikrlari XX asr birinchi yarmidagi Yevropa va Amerika Psixologiyasi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Pozitivizm yo'nalishi asoschisi Ogyust Kontning shaxs to'g'risidagi qarashlarida inson bilimi, tafakkuri haqida so'z boradi. Shaxs tafakkuri taraqqiyotini shu tarzda o'rganish quyidagi qonuniyatni ochishga olib keladi, ya'ni u uch bosqichli qonuniyat, deb ataladi. Birinchisi - teologik yoki yolg'on (fiktiv); ikkinchisi - metafizik yoki mavhumlashgan; uchinchisi - pozitiv yoki ilmiydir. Shaxs bilish jarayonlarida ana shu yo'llardan, albatta, o'tadi. Demak, bu uslublardan uch turdagi falsafiy dunyoqarash yoki umumiy qarashlar tizimi vujudga keladi. Birinchisi – shaxs tafakkurining boshlang'ich harakatga keluvchi nuqtasi; ikkinchisi - o'tuvchanlik rolini o'ynaydi; uchinchisi – shaxs tafakkurining aniq, yakuniy holatidir.

Kont tabiatni bilish tarixini uch davrga bo'ldi. Uningcha, bularning har biri shaxs dunyoqarashining muayyan tipiga: teologik, metafizik va pozitiv tiplarga muvofiq keladi.

Birinchi teologik davr inson aqli hodisalarni g'ayritabiiy kuchlarning, Xudoning ta'siri bilan izohlashga uringan.

Kontning fikricha, shaxsning metafizik dunyoqarashi teologik dunyoqarashning o'zgargan shaklidir. Metafizik dunyoqarashga ko'ra, barcha hodisalarning asosini abstrakt metafizik mohiyatlar tashkil etadi.

Shaxsning teologik va metafizik dunyoqarashi o'rniga, Kontning fikricha, "pozitiv metod" keladi va bu metod "mutlaq bilim"dan voz kechishni talab etadi.

Psixologiyada amerikalik J.G.Mid va R.Mertonlar tomonidan ilgari surilgan shaxs to'g'risidagi nazariyalar ham diqqatga sazovordir.

Amerikalik Psixolog Merton Robert King shaxs to'g'risidagi Psixologik qarashlarida ommaviy muomala vositalari, shaxslararo munosabatlar haqida fikr yuritadi. Merton ijtimoiy tuzilmada keskinlik va shaxslar o'rtasidagi ziddiyatlar natijasida vujudga keluvchi disfunktsional hodisalarni o'rganishga harakat qildi. Bunday yondoshuvga "Ijtimoiy tuzilma va anomiya" asari misol bo'la oladi. Unda shaxsda ijtimoiy tuzilmaning buzilishlari va keskinliklariga nisbatan huquqiy aks ta'sirining turli xillari («konformizm», «innovatsiya», «ritualizm», «retretizm», «isyon») tahlil qilingan.

Amerikalik Psixolog Mid Jorj Gerbert ongni individning tashqi muhitga moslashish quroli deb izohlagan. Shaxslarning guruhlardagi o'zaro harakati sun'iy ob'ektlar dunyosi - ramzlarning vujudga kelishiga olib keladi. Ijtimoiylashuv jarayonida individlar ramzlarning ahamiyatini egallaydilar va ular yordamida o'z harakatlarini ongli ravishda yo'naltirishga o'rganadilar. Shu tariqa ular o'z harakatlarini yanada kengroq «ijtimoiy harakatga» olib kelib qo'shadilar. Shaxsning rivojlanishi - bu o'z xulqi, xatti-harakatini hamkori harakatlariga moslashtirish, guruh hayotida unga ajratilgan «rolni qabul qilishidir». Jamiyat esa shaxsda o'zi to'g'risida ma'lum bir tasavvur shakllantira borib va uning xatti-harakatlarini zarur tomonga yo'naltira borib, go'yoki «unga ichdan kirib boradi».

Shaxsda rivojlangan «Men» vujudga kelishi bilan tashqi ijtimoiy nazorat ichki tomon yoʻnaladi, oʻz-oʻzini nazoratga aylanadi. Shaxs guruhning, jamiyatning ramziy oʻzaro harakati tuzilmasida oʻz rolini bajara oladigan masʼul shaxsga aylanadi. Midning ijtimoiy konsepsiyasi ijtimoiy psixologiya va Psixologiyaning (shaxs, ijtimoiylashuv, ijtimoiy nazorat muammolari) keyingi rivojiga kuchli taʼsir koʻrsatdi. Bu konsepsiya ramziy interaksionizm (G.Blumer, T.Kun, I.Gofman, A.Stross, T.Shabutani va b.) nomi bilan tanilgan yoʻnalishga asos boʻldi.

Psixologiyada shaxsning roli nazariyasi G.Merton va T.Parsons va Darendorflar tomonidan yanada rivojlantirilgan. Bu nazariya ikki asosiy tushunchalar: shaxsning ijtimoiy mavqei va ijtimoiy roli orqali tushuntiriladi. Unga koʻra, har bir shaxs muayyan ijtimoiy tizimida bir necha oʻrinni egallashi mumkin. Har bir egallangan oʻrin ijtimoiy mavqe deb ataladi. Shaxs oʻz hayoti davomida bir necha ijtimoiy mavqega ega boʻlishi mumkin. Binobarin, bu oʻrinlardan qaysi biridir uning asosiy ijtimoiy mavqeini belgilaydi. Bosh mavqe shaxsning egallab turgan mansabi bilan belgilanadi.

Nemis Psixologi va siyosiy arbobi Darendorf Ralf shaxslar oʻrtasidagi ijtimoiy nizo (konflikt) konsepsiyalarining asosiy vakillaridan biri. U «bir yoqlama», «utopik» (birinchi navbatda funksional) ijtimoiy muvozanat konsepsiyalarini keskin tanqid qilgan. Psixologiya shaxslarning jamiyat va alohida olingan shaxsning kesishgan nuqtasidagi hatti-harakatini oʻrganadi. Bu oʻrinda Darendorf jamiyatni Zimmel kabi eng tor munosabatlardan eng keng ijtimoiy aloqagacha boʻlgan aloqalar turi, shu jumladan referent guruh sifatida tushungan. Har bir guruhda, har bir jamiyatda shaxslar maʼlum bir vazifaning, holatning egasi sifatida harakat qiladilar. Har bir vaziyatga maʼlum ijtimoiy rol -toʻgʻri keladi, bunda atrofdagilarning istak va mulohazalari unchalik ahamiyatli emas. Shaxsning ijtimoiy rollari Darendorf fikricha, alohida olingan shaxsga qoʻyilgan majburiyatdir. Bu majburiyatdan toyib ketmaslik uchun ijtimoiy sanksiyalar tizimi amal qiladi. Shaxs xatti-harakatining majburiy ravishda meʼyorlab qoʻyilishi ijtimoiy guruhlarining eng muhim belgisi hisoblanadi. Qabul qilingan meʼyorlarga amal qilish shaxs uchun ijtimoiy oʻsish uchun eng yaxshi imkoniyatlarni berishi

mumkin, me'yoriy bo'lmagan xatti-harakatga sanksiyalar qo'llaniladi. Darendorf shaxsning ijtimoiy rollari o'rtasidagi, ijtimoiy guruhlar ichidagi, guruhlar o'rtasidagi nizolarni ajratib ko'rsatgan.

Amerikalik nazariyotchi Psixolog Parsons Tolkot Psixologiyada insoniy borliqning uni butun bir holicha qamrab oluvchi tahliliy-nazariy tizimini atroflicha ishlab chiqishga uringan. Bu maqsadda dastlab u Veber, Dyurkgeym, Marshall, Pareto asarlariga, shuningdek hozirgi zamon kibernetik va ramziy-semiotik tasavvurlarga tayangan. Shaxsning jamiyatdagi borlig'ini pozitivistik izohlash o'rniga yangicha nazariya yaratishga uringan. Harakat sub'ekti shaxs atrof muhitdan alohida ob'ektlarni ularni joyi, xossalarini farqlagan va guruhlarga bo'lgan holda ajratib olish mumkin.

Shuningdek, shaxs vaziyatdan kelib chiqib, o'z ehtiyojlarini qondirish nuqtai-nazaridan qaraganda uning uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektlarni farqlaydi. Sub'ekt biluvchanlik va katektik baholangan ob'ektlar orasida o'zining u yoki bu ehtiyojining qondirilish tartibiga qarab keyingi tanlov va solishtirma baholashni amalga oshirishga majbur.

Bundan tashqari, faol harakat qiluvchi shaxsning vaziyat ob'ektlariga yo'nalganligi vaqt bilan o'lchanadi, ya'ni uning o'z harakati natijasi to'g'risidagi tasavvurni tug'diradi. Bunday tasavvur shaxsning o'z oldiga maqsad qo'ya olish va unga erishishga intilish qobiliyati asosiga qo'yilgandir. Parsons ijtimoiy sub'ektlarning o'zaro harakat vaziyatini tadqiq etganlar. Ijtimoiy sub'ektlar bir-biri bilan «o'zaro kutish» tizimi orqali bog'langan, ya'ni ularning harakati maslakdoshning kutishiga yo'naltirilgan. Buning natijasida shaxsning motivatsiya tuzilmasini tashkil qiluvchi kognitiv, katektik va baholovchi yo'nalmalariga qadriy yo'nalganlik ham qo'shiladi. Parsons shaxs ehtiyojlari va qadriyatlarini o'zaro ta'sirini inkor etmagan holda aniq tahliliy tarzda farqlab ko'rsatadi. Bu esa harakatning shaxs va madaniyat kabi nisbatan alohida tizimchalarini ajratish va chegaralash, ham butunlay mustaqil stixiyali shaxs to'g'risidagi, ham qat'iy madaniy jilovlab qo'yilgan individlar to'g'risidagi tasavvurlarning noo'rin ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga Parsons bir tomondan shaxsning to'laqonli psixologik tuzilma sifatidagi, ikkinchi tomondan ijtimoiy faolning ushbu to'laqonli tuzilmada tahliliy ajratib olingan rollar mavhum kompleksi (yig'indisi) sifatidagi tushunchalarni ajratib ko'rsatgan. Psixolog shu asosda shaxs harakat tizimining formallashtirilgan modelini shakllantirgan. Bu model o'zaro ayriboshlash munosabatidagi ijtimoiy, shaxsli va organistik tizimchalarni o'z ichiga oladi.

Parsonsning fikricha, shaxsning vaziyatini baholash faqatgina shaxsning individual ehtiyojlariga asoslanmasdan, mavjud madaniyatning umumiy namunalariga ham mos keladi. Inson harakatining eng umumiy tizimi darajasida shaxs maqsadga erishish vazifasini bajarishga ixtisoslashadi, ijtimoiy tizim individlar o'zaro harakatda qo'llaydigan eng ko'p umumiy namunalar, maqsadlar, qadriyatlar, e'tiqodlar, bilimlar, qoidalar, xullas shu kabi «ma'nolarni» ta'minlovchi ramziy vositalarni o'zida mujassamlashtiradi, bularnipg barchasi shaxs harakatiga tartibli xususiyat baxsh etadi, uni ichki ziddiyatlardan xalos qiladi.

2.2. Shaxsning ijtimoiy xulq-atvor motivlari va ijtimoiylashuvi

Amerikalik psixolog Kuli Charlz Xorton «Aynan ko'zgudagi men» nazariyasi muallifi, kichik guruhlar nazariyasi asoschilaridan biri. Kuli Psixologik nazariyasi asoslari «Inson tabiati va ijtimoiy tartib» (1902) «Ijtimoiy tashkilot» (1909), «Ijtimoiy jarayon» (1918) trilogiyasida, shuningdek, «Psixologik nazariya va ijtimoiy tadqiqot» (1930) kitobida bayon qilingan. Uning Psixologik nazariyasi asosida ijtimoiy organizm qoidasi va ijtimoiy jarayonlar shakllanishida shaxs ongi asosiy ahamiyatga ega degan tushuncha yotadi.

Kulining shaxs to'g'risidagi talqinlarida shaxs, jamiyat, ijtimoiy guruhlar yagona tirik organizm deb qaraladi. Shu bilan birga ongli ijtimoiy narsa deb qarab, jamiyat va ongni mujassamlashtiradi, ya'ni ijtimoiy munosabatlarni ruhiylashtiradi. Kuli tadqiq etgan asosiy muammolar - kichik guruhlar va shaxsning shakllanishi. U birlamchi guruhlar (ushbu atamaning o'zini ham fanga Kuli kiritgan) va ikkilamchi ijtimoiy institutlarni ajratib ko'rsatgan. Birlamchi guruhlar (oilalar, bolalar

guruhlari, qo'ni-qo'shnilar, mahalliy jamoalar) asosiy ijtimoiy hujayralar hisoblanadi va intim, shaxsiy, noshakliy aloqalar, bevosita muomala, turg'unlik va kichik hajm bilan xarakterlanadi. Bu yerda shaxs ijtimoiylashadi va shakllanadi, o'zaro harakat jarayonida asosiy ijtimoiy qadriyatlar va normalarni, faoliyat usullarini o'zlashtiradi. Shu o'rinda Kuli shaxsni insonni o'rab turgan odamlar fikriga nisbatan ko'rsatadigan ruhiy javoblari (reaksiyasi) yig'indisi, majmui deb baholaydi («ko'zgudagi Men» nazariyasi). Ikkilamchi ijtimoiy institutlar esa Kuli fikricha, ijtimony tuzilmani tashkil etadi. Bu yerda noshaxsiy munosabatlar o'rnatiladi, shakllangan shaxs muayyan vazifani bajaruvchi sifatida bu munosabatlarga qismangina jalb etiladi. Kulining shaxs shakllanishi to'g'risida psixologik ta'limoti interaksion konsepsiyalar, ijtimoiy-psixologik nazariyalarga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Amerika Psixologi Robert Ezra Park shaxsning Psixologik jihatlariga e'tibor qaratar ekan, shaxs va jamiyatni bog'lovchi ijtimoiy kuchlarni "tabiiy" kuchlar deb hisoblaydi. Shu bilan shaxsning tabiati jamoaviy xulq-atvor jarayonida alohida o'rganiladi. Parkning yozishicha, inson organizmida xulq-atvorning turli shakl va darajalari mavjud. Inson biologik jihatdan ham turli xususiyatlar egasidir. Natijada shaxs xulqining nisbatan rivojlangan shakllarini elementar holatlardan ajratish ancha qiyin. Inson tabiatining rivojlanish va ijtimoiylashuvi biologik va ijtimoiy darajalar ta'sirida yuz beradi. Shaxslarning biotik raqobatga kirishuvchanligi jismoniy aloqadorlikda va harakat erkinligida amalga oshadi.

Daniyalik olim Kerkegor shaxsga oid qarashlarida din insondan mutlaq e'tiqodni va tobelikni talab qilishi lozimligini aytib o'tadi. Shaxsning e'tiqod aqidalari to'g'risida fikr yuritadi.

Kerkegor aqlga qarshi bo'lgan. Uning fikricha aql bilan e'tiqod bir-biri bilan hech kelishmaydigan hodisalardir, aql e'tiqodning ashaddiy dushmanidir.

Kerkegor fikricha, shaxs mavjudligi bilan tafakkuridagi in'ikos orqali emas, balki hayotdagi oqim orqali uchrashadi va tanishadi, uchraydigan turli muammolar bilan to'qnashadi. Kerkegor aytadiki, shaxs qanchalik kam fikrlasa, shunchalik ko'p mavjuddir.

Kerkegorning ta'kidlashicha, o'zligi bilan "uchrashuv" shaxs hayotining to'fonli davrlarida sodir bo'ladi, qachonki ("Yoki-yoki") tanlash zarurati paydo bo'lganida sodir bo'ladi. Aynan shunday vaziyatda shaxs o'z mavjudligini yaqqol his qiladi, anglaydi. K'erkegor o'z hayoti davomida shuni isbotlaydiki, shaxsning tanlash vaziyati abstrakt, mavhum fikrda emas, balki hayotning eng og'ir damlarida o'zini namoyon qiladi. Uning fikricha, shaxs faqat umumiy tushunchalar bilan ish ko'rganda yoki mavhum mohiyatlar masalalari bilan shug'ullanganda, konkret o'z mavjudligi borasida to'qnashadigan muammolarni hal qilishga qodir bo'lolmay qoladi. Amaliy, axloqiy mavjudot sifatida har bir shaxs faqat umumiy fikrlar bilan qoniqmaydi, u o'zining aniq hayotida qanday yo'l tutishi kerak, qanday harakat qilishi kerakligini bilishni xohlaydi. Kerkegor hayotdagi tanlash masalasiga diqqat-e'tiborini qaratib, uni hal qilishga harakat qiladi.

Kerkegor fikricha, tanlash vaziyati shaxsni iztirobdan xalos etish bilan bog'liqdir. Bu masalani hal qilishda u o'z ruhiy rivojining turli davrlarini tahlil qiladi, buni shaxs mavjudligining rivojlanish davrlariga tatbiq qiladi.

Kerkegor o'z qarashlarida shaxs mohiyati erkinlikdadir, deydi.

Kerkegor shaxs o'z rivojining estetik davrida tashqi dunyoga katta e'tibor beradi. Shaxsning estetik davri hissiyotlar o'yini davridir.

Bunday hayot tarzi shaxsni zerikarli hayotga olib keladi, undan voz kechib, shaxs yuqoriroq darajadagi hayot tarziga o'tadi, ya'ni axloqiy davrga o'tadi. Bu davrda burch hissiyoti hukmron bo'ladi. Shaxsning axloqiy davrida u hissiyotlar o'yinidan voz kechib, o'z xohish-irodasini axloqiy qonuniyatga bo'ysundiradi. Bunda tanlash harakati sodir bo'lib, shaxs o'zini axloqiy mavjudot sifatida tanlaydi, ya'ni ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi farqni bilguvchi, o'zining gunohkorligini anglaguvchi va haq yo'lini tanlagan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu davrda estetik hayot tarzi tanqid ostiga olinadi. Bir davrdan ikkinchisiga o'tish mantiqiy jarayon sifatida sodir bo'lmay, balki shaxs irodasi harakatining, tanlashning oqibatidir. Bunday tanlashda tafakkur emas, balki shaxs o'zining butun botini bilan ishtirok etadi.

Davrdan davrga o'tish qanday sodir bo'ladi, nima uchun sodir bo'ladi, uning ruhiyatdagi aksi qanday bo'ladi? Kerkegor fikricha, o'tish shaxsning ichki pushaymonlar, nadomatlar bo'hroni tufayli, tafakkurdan voz kechish orqali yuzaga keladi. "Muhtojlikni tanlab, men pushaymonni, nadomatni tanlayman, nadomatni tanlab men mutlaqni tanlayman, shuning uchun ham mutlaqlik - bu menman...", - deydi Kerkegor. Tafakkur bilan qalbning to'qnashishi hislarni hissiyot bo'hroniga olib keladi va ularni ma'nan qayta ko'rishga borib taqaladi. Lekin bu bo'hron shaxsni halokatdan qutqarish quvvatiga ega bo'ladi. Bu quvvat qo'rquv orqali keladi. Shaxs hayotining ayrim davrlarida, lahzalarida uni qo'rquv, vahima holati ruhiyatni qamrab oladi. Nima oldidagi qo'rquv? Bu qo'rquv aniq bir nimadan cho'chish emas, balki qandaydir noaniqlik, umuman dunyodan qo'rquv holatidir. Qachon bu qo'rquv holati o'tib ketsa, deyarli hech qanday hodisa sodir bo'lgani yo'q, deymiz. Aslida esa, bu qurquv hech nima oldidagi qo'rquvdir.

Kerkegor ta'kidlashicha, shaxs haqiqiy hayotdan, umr kechirishdan yiroqdadir. U kundalik mayda yumushlar bilan mashg'uldir. O'z mayda manfaatlariga cho'ngandir. O'ziga kerakli bo'ladigan insonlar bilan muloqotda bo'ladi va hokazolar. Ana shunday davrda u o'z mayda harakatlari, faoliyati uchun hisobot bermaydi. Bunday vaziyatlarda shaxs odatiy hayot ikir-chikirlariga mexanik tarzda amal qilib yashayveradi.

Lekin qo'rquv holatida inson ko'zidan parda ko'tariladi, inson mavjudligining haqiqiy nuri, mohiyati yaqqol namoyon bo'ladi. Mana shu yerda shaxs aniq anglay boshlaydi, ikir-chikirlar bilan yashash haqiqiy insoniy yashashning mohiyati oldida, mavjudlik oldida hech nimaga, bo'shliqqa aylanib qoladi. Qo'rquv esa bizda ichki yangi imkoniyatlarni tug'diradi. "Qo'rquv o'zimizni o'zimiz bilan qoldirishga majbur qiladi. Qo'rquv erkinlik imkoniyatini tug'diradi", - deydi Kerkegor.

Shaxs qanday tanlashni ixtiyor qilishi kerak? Bu e'tiqod va e'tiqodsizlik o'rtasidagi, e'tiqod va tafakkur o'rtasidagi tanlashdir. Aqlni inkor qilib, shaxs o'z erkinligini ta'minlaydi. Shaxs o'zini qutqarishini e'tiqoddan topadi. Faqat mutlaq tanlashdagina inson o'zining mutlaq erkinligini topadi. Bu esa shaxsni o'zining

abadiy xotirjamligiga, ilohiyligiga erishishidir. Aql orqali dunyoni o'zgartirish yoki hayotni o'zgartirish erkinlik emas.

Kerkegor fikricha, shaxs tanlashi, e'tiqodli bo'lishi yo'qlikka sakrash orqali sodir bo'ladi, bunda u o'zligini butunlay yo'qotadi. Shunda uning atrofini bo'shliq qamrab oladi, shaxs nadomat qila boshlaydi. Shaxs bo'shliqqa sakrab, shu yo'lni tanlasa, u nihoyat o'zini topadi, o'zining haqiqiy "meni" ga erishadi. Bu "men" ham cheklilik, ham cheksizlikdir. Shunda e'tiqod gunohkor inson oldiga tushadi, shaxs o'z erkini his qiladi, e'tiqod bilan muloqotga kirishadi. Tafakkurdan voz kechib, inson o'z e'tiqodini topadi.

Kerkegor ta'limotining qisqacha mazmuni yuqoridagi fikrlardan iboratdir. Uning fikrlari keyinchalik M.Xaydeger tomonidan rivojlantirildi.

Kerkegor hayotining oxirgi haqiqatini aql orqali bilishni inkor qilib, o'zining irrasional mushohadalarini ilgari suradi. U taklif qilgan yechimlar fan tiliga to'g'ri kelmasa ham, lekin o'quvchidan maxsus diqqat-e'tiborni talab qiladi.

Nemis Psixologi Yurgen Xabermas shaxs haqidagi Psixologik talqinlarida inson ehtiyojlarini qondirish uchun tabiatdan foydalanish qobiliyatiga bog'liqligi haqida fikr yuritgan. Shaxslar bir paytning o'zida ham birgalikdagi harakatga, ham kommunikativ o'zaro ta'sirga bog'liqligi, ularning o'zaro intersub'ektiv tushunishlarning chuqurlashuvini ta'minlashdan iborat bo'lgan amaliy kognitiv manfaatini ifodalaydi.

Xabermas fikricha, shaxsda bilish va rasionallikning boshqaruv hamda hukmronlik yo'naltirilmagan boshqa shakli ham mavjud. U amaliy kognitiv manfaatga asoslangan. Inson va shaxslararo munosabatlarga bog'liq masalalarda kognitiv manfaat va amaliy kognitiv manfaatdan qay birini qo'llashni o'zimiz hal qilishimiz mumkin.

Mazkur ijtimoiy darajaga ham shaxsni ichidan ezishga va buyumlashuvga qarshi kurashda muhim bo'lgan emansipatsiya kognitiv manfaati xos. Boshqacha aytganda, tabiatga nisbatan faqat bitta tushuntiruvchi va boshqaruvchi texnik kognitiv manfaat o'rinli, jamiyatga nisbatan esa har uchala kognitiv manfaat o'rinlidir.

Xabermas ta'limoticha, shaxs o'zini g'ayriijtimoiy tarzda tutsa, biz buni psixologik sabablar orqali tushuntirishga va sababiy aloqadorlik to'g'risidagi tasavvurlar asosida shu shaxsni "davolash" ga urinib ko'rishimiz mumkin. Endi bu shaxs biz uchun "ob'ekt" bo'lib qoladi. Biz o'z bilimimiz tufayli shu "ob'ektlashgan" shaxsni "boshqarishimiz" mumkin. Yoki biz bu shaxsni oqil, sog'lom va shuning uchun o'z xatti-harakatlariga javob bera oladigan kishi, deb hisoblashimiz mumkin. Keyingi holatda biz bu shaxs o'zini shunday tutishining asoslarini qidirib ko'ramiz. Buning uchun u biz bilmaydigan jiddiy asoslarga ega bo'lgandir yoki ehtimol bu tanbehga loyiqdir va biz undan o'zini axloq me'yorlariga mos tarzda tutishni talab qilishimiz kerakdir. Bir qator vaziyatlarda (nevroz va alkogolizm kabi) biz har ikki yondashuvni qo'llashimiz ham mumkin. Ba'zi holatlarda esa shaxs xulqi sababiy asoslangani shundoq ko'rinib turadi, masalan, giyohvand modda qabul qilgandan keyin yoki mas'uliyatli va normal holatda. Keyingi holat, masalan, imtihon oluvchini imtihon topshiruvchi berayotgan javoblarini nima sababdan aytayotgani emas, balki bu javoblar qanday asosga ega ekani haqidagi masala qiziqtirganda shu holat yuz beradi.

XULOSA

Shaxs to'g'risidagi asosiy psixologik qarashlarni o'rganish va tahlil qilish maqsadida amalga oshirilgan nazariy – amaliy izlanishlar quyidagi umumiy xulosalarni bayon etish imkoniyatini berdi:

E'tirof etish lozimki, har qanday jamiyatning taraqqiyoti va fuqarolik jamiyatini barpo qilishda ijtimoiy muhit muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy muhitning asosiy funksiyalaridan biri – shaxsning xatti-harakati, uning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi tashqi ob'ektiv omillar majmuasi hamda muayyan tizim bo'lib, u o'zida shaxs imkoniyatlarini shakllantiradi, hayotga joriy etadi. Natijada har bir shaxs jamiyat hayoti bilan bevosita aloqadorligidagi aniq ijtimoiy faoliyat va muloqot maydonini namoyon qiladi. Chunki, bu omillar shaxs xatti-harakati, yurish-turishini shakllantiradi va boyitadi. Mamlakatimiz mustaqilligining muhim vazifalaridan biri ham jamiyatning barqaror rivojlanishi hamda sog'lom turmush tarzini ta'minlashdir.

Shu bois, shaxs takomillashuvi ijtimoiy jamiyat sivilizatsiyasida muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida e'tirof etiladi.

Shaxsning shakllanishida va jamiyatdagi o'rnini egallashida ijtimoiy vaziyatlarning o'rnini muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

- shaxslarning aqliy salohiyati va xarakteri ular yashab turgan boshqaruv shakliga qarab o'zgarib boradi;
- shaxslar qandaydir ko'nikmalar bilan dunyoga kelmaydilar, ular bor-yo'g'i tarbiya mahsulidir;
- har qanday ijtimoiy o'zgarishlar shu jamiyatda yashab turgan shaxslarning xarakteriga ham ta'sir etadi;
- jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy muhitni barqarorlashtirish uchun shaxs to'g'risidagi Sharq va G'arb mutafakkirlarining psixologik qarashlari muhim o'rin tutadi;
- jamiyatda shaxsning o'z o'rniga ega bo'lishiga uning xulq-atvori motivlari va ijtimoiylashuvining ta'siri katta ahamiyat kasb etadi;
- shaxslarning erkin fikrlash, voqea-hodisalarga nisbatan ongli munosabatda

bo'lishini shakllantirishda sotsiologiya fanining o'rni beqiyos;

- shaxs haqidagi psixologik talqinlar fanda shaxs tushunchasining ilmiy-nazariy jihatlarini tahlil etishda beqiyos qimmatga egadir.

TAVSIYALAR

O'tkazilgan tadqiqot ishimizdan olingan xulosalarga tayanib quyidagi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- ijtimoiy, ma'rifiy, axloqiy, mafkuraviy jihatdan barkamol shaxsni shakllantirish maqsadida Sharq mutafakkirlarining shaxs to'g'risidagi qarashlaridan yosh avlodni tarbiyalashda foydalaniladigan qo'llanmalar yaratish;

- shaxslar o'rtasida bir-birlarini tushunishning yetishmasligi, shaxsning xulq-atvoridagi agressiv ko'rinishlar oqibatida har xil nizolar kelib chiqadi. Bu holatni oldini olish va bartaraf etish uchun shu muammoga oid psixologik qo'llanmalar yaratish, ulardan ta'lim muassasalari sotsiologlari tomonidan tashkil etilgan treninglarda keng foydalanib, targ'ib qilishlari lozim bo'ladi.

- shaxslarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi ko'rsatuvlar, mahalliy matbuotda esa maqolalar e'lon qilib borish zarur. Bunda shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishuvi shaxs tasavvuri, idroki, dunyoqarashi shakllanishiga ta'siri masalalariga asosiy mavzular sifatida e'tibor qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: “O‘zbekiston”, 2011.
2. Karimov I.A. Asarlar to‘plami.1-19 jildlar. – T.: “O‘zbekiston”, 1996-2011.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: “O‘zbekiston”, 2005.
5. Karimov I.A. O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari. - “Turkiston”, 2002 yil 31 avgust
6. Aliqoriev N.S. Umumiy sotsiologiya. T.: - 1999.
7. Bekmurodov M.B, Ota-Mirzaev O.B. va boshqalar. Sotsiologiya. T.: - 2002.
8. Bekmurodov M.B. Movaraunnahrda jamoatchilik fikri tarixi. T.: - 1994.
9. Boltaev M.N. Abu Ali Husayn Ibn Sinoning falsafiy-ijtimoiy ta’limoti. B.: - 2001.
10. Boltaev M.N. Amerika sotsiologiyasining texnikaviy an’analari. B.: - 2004.
11. Boltaev M.N. Nosir Xisrav buyuk donishmand va mutafakkir. B.: - 1995.
12. Karimov B.Sh. Sotsiologiya. B.: - 2004.
13. Kozirevskaya A.V., Osipov V.E. Sovremennoe informacionnoe prostranstvo, yego vliyanie na obrazovanie i sotsializasiyu cheloveka. // Vestnik vostochno-sibirskoy gosudarstvennoy akademii obrazovaniya: Irkutsk, 2010. – Vip. 12.
14. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug‘at. T.: - 1998.
15. Nazarov Q. G‘arb falsafasi. T.: - 2004.
16. Pleshakov V.A. Virtualnaya sotsializatsiya kak sovremenniy aspekt kvazisotsializatsii lichnosti // Problemi pedagogicheskogo obrazovaniya. Sbornik

nauchnix statey. Vip. 21. /Pod red. V. A. Slastyonina, Ye. A. Levanovoy. - M.: 2005.

17. Rean A. Razvitie i sotsializatsiya lichnosti v seme / A. Rean // Sotsialnaya rabota. – 2003.

18. Sulaymonova F. G‘arb va Sharq. T.: O‘zbekiston, - 1997.

19. Tojiboyeva X. Abu Nasr Farobiyning jamiyat va davlat ravnaqi to‘g‘risidagi psixologik g‘oyalari. T.: - 2005.

20. Tulenov J. Falsafiy madaniyat va ma’naviy kamolot. T.: - 2000.

21. Ubaydullayeva B., Otamirzaev O., Bekmurodov M., Qayumov O‘. Psixologik tadqiqotlar amaliyoti. T.: - 2001.

22. Falsafa. Qisqacha izohli lug‘at. T.: - 2004.

23. Falsafa. Qomusiy lug‘at. T.: - 2004.

24. Entoni Giddens. Sotsiologiya. T.: - 2002.

25. Erkaev A. Ma’naviyat va taraqqiyot. T.: - 2009.

26. www.pedagog.uz.

27. www.google.ru

28. www.lex.uz

29. www.edu.uz

30. www.ziyonet.com